

**Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan qonunchilik hujjatlari ijrosini ta'minlash
bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida
MA'LUMOT**

2026-yil 1-iyun holatiga

“Ijro.gov.uz” tizimidagi Davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF–6166-sonli, 2025-yil 25-iyuldagi PF–117-sonli farmonlari hamda 2021 yil 31 maydagi PQ–5132-sonli qarori asosida tashkil qilingan yagona va uzluksiz “texnologik zanjir” asosida amalga oshirilib, ijro intizomiga rioya etish borasida qat’iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatilib, muayyan natijadorlikka erishildi.

Har haftaning dushanba kunlari vazir huzurida hamda juma kunlari vazirning ijro intizomiga mas’ul o‘rinbosani huzurida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Administratsiya rahbari va Hukumatning hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi tanqidiy muhokama qilib borilmoqda.

2026-yil 12-may kuni vazirlikning Hay’at yig‘ilishida “Ijro.gov.uz” tizimidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi muxokama qilinib, mas’ullarning shaxsiy mas’uliyati va javobgarligi oshirilgan.

2026-yilning may oyida ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Administratsiya rahbari hamda Vazirlar Mahkamasi topshiriqlarini 25-mayga qadar ijrosini ta'minlashga qaratilgan I–II kartoteka topshiriqlar ro'yxati 9-aprel kuni, vazir o‘rinbosarlari kesimidagi Kalendar reja hamda “Yo‘l xarita”lar ishlab chiqilib, vazir Sh.Xamrayev imzosi bilan eslatma va ijro uchun barcha vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

Joriy yilning may oyida vazirlik asosiy ijrochi bo‘lgan jami 55 ta Davlat rahbari topshiriqlaridan 53 tasi, ya’ni 96,4 foizi bajarilgan, 2 tasi (3,6%)ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-sonli qaroriga muvofiq muddat uzaytirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi va Adliya vazirligiga takliflar kiritilgan, Prezident Administratsiyasi rahbarining 20 ta hamda Vazirlar Mahkamasining 26 ta topshiriqlari to‘liq bajarilgan.

Shuningdek, 2026-yil iyun oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 276 ta, Administratsiya rahbarining 40 ta hamda Vazirlar Mahkamasining 36 ta topshirig‘i nazoratga olingan.

Tashkiliy nazorat va tahlil bo‘limi